

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA № ZV60842312**

- 1. Loyiyaning turi: Shartnoma**
- 2. Loyiyaning nomi:** “Talaba omad servis” va Bog‘ot tumani Tibbiyot birlashmasi o‘rtasida tuzilgan pudrat shartnomasi
- 3. Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqida ma’lumot:**
Bog‘ot tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va 2022-yil 16-sentabr kuni dasturga kiritilgan.

X U L O S A:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog‘ot tuman yuridik
xizmat ko‘rsatish markazi
bosh yuriskonsulti**



D.Matiyazov
16.09.2022

SHARTNOMA

2022 yil «16» 9

897-12-170-TB/2022-
son

Bog'ot shaharchasi

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan «**Bog'ot tuman Tibbiyot birlashmasi**» nomidan nizom asosida ish yurituvchi, raxbari **A.Saidov** bir tomondan, keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan "**Talaba omad servis**" MCHJ nomidan nizom asosida ish yurituvchi raxbari **Sh.Ibragimov** ikkinchi tomondan **Bog'ot tuman Tibbiyot birlashmasiga qarashli yangidan tashkil qilingan tibbiyot punktlaridagi konteynerlarini joriy ta'mirlash** binosini joriy tamirlash bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi;

- ijro xujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'grisidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruktsiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'grisidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruktsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'grisidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'grisidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;
- qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;
- vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;
- berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruktsiyalar bilan berkitiladigan ishlar;
- shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning xar bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq **Bog'ot tuman Tibbiyot birlashmasiga qarashli yangidan tashkil qilingan tibbiyot punktlaridagi konteynerlarini joriy ta'mirlash** ko'zda tutilgan loyixa bo'yicha joriy ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar qiymati barcha soliqlar yig'imlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda **192 000 000 (bir yuz to'qson ikki million)** so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlar qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
- ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
 - qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;
 - qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;
 - Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'grisida xabardor qilish;
 - qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroqlari o'rnatish;
 - qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
 - mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'grisidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;
 - qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;
 - qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'grisida shartnoma tuzadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.
 - mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'lik xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.
9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitel'naya dokumentatsiya) to'lik xajmda taqdim qiladi.
10. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'lik mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:
- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrga dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;
 - ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
 - Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
 - moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;
 - Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;
 - mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;
12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan uz majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'lik mulkiy javob beradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. Shartnoma tomonlar uni imzolagandan va G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik kuchga kiradi.
14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi.
15. Ob'ektni 2022 yil sentyabr oyida foydalanishga topshirilishi belgilanadi.

VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. Shartnoma bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.
17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu **57 600 000 (ellik yetti million olti yuz ming)** so'mni tashkil etadi.

18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun byudjetdan maqsadli berilgan mablag'lar o'ttiz bank kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-illovalar)
19. Buyurtmachi tomonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.
20. Pudratchining xisob rakamiga tushadigan mablaglar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xaq to'lash, ob'ekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va Ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qat'iy sarflanadi.
21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot o'yning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'grisidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'grisidagi ma'lumotnoma xisob-varaq-fakturani» o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.
22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma-xisob-varaq-faktura» asos bo'ladi.
23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saqlaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.
25. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siksiz tanishish xuquqiga egadir.
26. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.
27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va ish jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.
28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.
29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir. Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechiikishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.
30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida axamiyatga ega bo'lgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bogliq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'grisidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi. Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi. Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'lik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'lik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlarini bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muxokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

XI. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:-barcha ishlarni to'lik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;- loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatizatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalari muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

XII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortik muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortiq muddatga to'xtatib quyilganda;

- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

XIII . TOMONLARNING MULKIY JAVOGBARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

42. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

43. Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

44. Pudratchi obyektini o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

45. Agar ish sifati belgilangan standartlarga, me'yorlarga va qoidalarga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi xizmat uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

46. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

47. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudga murojat qilishlari mumkin.

XV. ALOXIDA SHARTLAR

49. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari uz kuchini yo'qotadi.

50. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.

51. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy xisoblanadi.

52. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bulishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

53. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xaq to'lashni kechiktirishga xaqlidir.

54. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun xujjatlariga Q.Q.S. to'g'risida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.

55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari qo'llaniladi.

56. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagan xamda Gaznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va bu shartnoma 31.12.2022 yilgacha amal qiladi.

57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lib 2 nusxada tuzildi.

XVI. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

58. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha choralar tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

59. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga



ovdinlik kiritish maqsadida vozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushuntirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

60. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

XVII. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI

"PUDRATCHI"

"BUYURTMACHI"

Talaba omad servis MCHJ	Bog'ot tuman tibbiyot birlashmasi
Manzili: Xonqa tuman Xonqa ko'chasi 130 uy	
Tel/faks: 972216061	Manzil: Toshkent ko'chasi 2-uy
sh/r: 20208000700500351001	Tel/faks: 62-31-52-531
Bank nomi: Agra bank xonqa filiali	sh/x: 100022860332047073101054001
MFO: 00560	Byudjetdan mablag oluvchi STIRi: 200426871
STIR: 303439390	OKED: 91511
ORONX 61110	G'aznachilik bo'linmasi nomi: Moliya Vazirligining Yagona G'azna xisob varag'i
	G'azna x/y: 25402000300100001010
	Bankning nomi: Markaziy bank
	MFO: 00014
	G'aznachilik bo'linmasi STIRi: 201122919
Rahbar  Sh. Ibragimov	Rahbar  A. J. Saidov

